

TIL VA NUTQ BIRLIKHLARI. NUTQIY MULOQOT TURLARI

Radjapova Nafisa Muminjonovna,

Xorijiy filologiya fakulteti doktoranti, Urganch Davlat Universiteti, Xorazm.

Jumaniyozova Shahlo Zohid qizi,

Talaba, Urganch Davlat Universiteti, Xorazm. (99899 9665949)

Annotatsiya.

Ushbu maqolada nutqiy muloqotni tashkil etuvchi til va nutq elementlari, jahon tilshunosligidan ushbu masalada izlanish olib borgan tilshunos olimlarning fikr-mulohazlari berilgan. Bundan tashqari, nutqiy muloqotning ikkita asosiy turlarga (rasmiy va norasmiy muloqot uslubiga) ajratilishi haqida fikr yuritilan bo`lib, rasmiy muloqot uslubining funksional to`rtta guruhga ajratilib o`rganilishi, ularning og`zaki va yozma nutqda ishlatalishi haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar. til va nutq elementlari, rasmiy va norasmiy muloqot, og`zaki va yozma shakl

Annotation. This article presents the language and speech elements that make up speech communication, the opinions of linguists of world linguistics who have conducted research on this issue. In addition, there is given information on the division of speech communication into two main types (formal and informal communication style), and the study of formal communication style into four functional groups and their use in oral and written speech.

Key words. Language and speech elements, formal and informal communication, oral and written form

Muloqot insonning ijtimoiy ehtiyoji hisoblanib, muloqot qilish orqali insonlar o`z fikr-mulohazalarini almashishi, bir - biriga ta`sir etishi, kelishuv belgilashi, maslahatlashishi, bahslashishi va o`z fikrini bayon etishi mumkin. Bu jarayonda esa til va nutq asosiy kommunikatsiya vazifasini bajaradi. Insonlar nutqiy jarayonda til birliklaridan foydalangan holda o`z fikrlarini bayon etadilar. Ma`lumki, til va nutq o`zaro chambarchas yaxlit tushuncha ko`rinishida kelishiga qaramasdan, jahon tilshunosligida ushbu masala tilshunos olimlar tomonidan turli mulohazalarga sabab bo`lgan. Struktur tilshunoslik vakillarining F. de Sossyur ta`limoti izidan borib, ushbu ikki atamani bir-biridan farqlab berishga urinishganini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Xususan, N.A.Slyusareva va V.Ya.Zveginsev F.Sossyur nazariyasini davom ettirib, til va nutq orasidagi bir qancha farqlarni ko`rsatib bergen. V.Ya.Zveginsev fikriga ko`ra:

Nutq individual, til umumiyl hodisadir.

Nutq psixik hodisa, til sotsialdir.

Nutq harakatchan, dinamik, til esa stabillikka, statiklikka intiladi. 1

¹ Nurmonov A..Tanlangan asarlar. Jild 1. - T.:Akadem nashr, 2012.-B. 73.

Mashhur tilshunos olim A.H.Gardiner ta'kidlaganidek, so'z shakli va ma'nosi o'rtaida sezilarli farq bo`lib, buni o`sha so`z ishlatilayotgan jumladagi sintaktik va grammatik o`rniga, so`zning o`z va ko`chma ma`noda kelishiga qarab, matn tarkibida kelgan so`zning ma'nosini bilib olishimiz mumkin. (1932, Nutq nazariyasi va til kitobi)

Bu borada o`zbek tilshunos olimlari ham o`z fikrlarini bayon qilgan, jumladan professor A.Nurmonovning ta'kidlashicha “til atamasi ostida avtomatlashtirilgan belgilar va til egalarining undan foydalanish qoidasi, nutq atamasi ostida esa individlar nutqida uning real qo'llanilishi tushuniladi”.

Insonlar orasida bo`ladigan nutqiy muloqot ikki turga ajratiladi. Bular rasmiy va norasmiy muloqat uslubi hisoblanadi. Rasmiy muloqot uslubi ma'lum bir hodisaga adabiy me'yor qoidalariga binoan yondashib, rasmiy so`zlashuv uslubi, to'g'ri intonatsiya, muayyan leksikani qo'llagan holda amalga oshiriladi. Rasmiy muloqot asosan xalqaro diplomatik munosabatlar, ma'muriy-huquqiy soha, iqtisod, harbiy soha, hukumat faoliyatini va rasmiy muassasalarda amalga oshirishda qo'llaniladi. Davlat boshqaruvi bilan bog'liq turli xil vaziyatlarda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotini hujjatlashtirishda yozma rasmiy muloqot uslubi ishlatiladi.

Rasmiy muloqotning o`ziga xos xususiyati shundaki, unda belgilangan maxsus gazeta uslubida ko`p qo'llaniladigan iboralar ya'ni klischelardan foydalaniladi. Prezident farmonlari, davlat tomonidan qabul qilingan qarorlari, davlatlararo shartnomalar, memorandumlar, diplomatik yozishmalar va protokol; shuningdek huquqiy qonunlar, kodekslar va nizomlar; idoralararo ko`rsatmalar, buyruqlar va ma'lumotnomalar, anketalar va e'lolar, har xil turdag'i bayonnomalar, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtaсидagi shartnomalar, ishonchnomalar aynan rasmiy muloqot me'yorlariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash joizki, rasmiy muloqot o`ziga hos prinsiplarga ega bo`lib, nutq batafsillik, aniqlik, so`zda qat'iylik, mantiqiylik, fikrni ifodalashda ixchamlik, manbalarning rasmiylashtirishning maxsus me'yorlari, takror va mavzudan tashqari tafsilotlarni kiritmaslik zarur hisoblanadi.

Muloqotning ikkita turi mavjud bo`lib, ular verbal va noverbal turlarga ajraladi.

- verbal muloqot so'zlar, jumlalar orqali yuzaga keladi, biz og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilganimizda tovushlarni so'zlarga aylantiramiz va ular bizning fikr va g'oyalarimizni o`zida aks ettiradi

- noverbal muloqotda inson his-tuyg'ularini ifodalash vositasi sifatida imo-ishoralar, ohang, mimika, odamning holati, qarashlari, intonatsiyasi, suhbatdoshga nisbatan hududiy joylashuvi, masofadan foydalanadi.

Biz muloqotni vositalar xususiyatiga ko`ra quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin. Ya'ni bevosita va bilvosita. Bevosita muloqot tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy organlar: qo'llar, bosh, tana, tovush psychalari va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Bilvosita muloqot bu axborot almashinuvini tashkil etishda maxsus vosita va qurollar

yordamida amalga oshiriladi. Bular tabiiy (yog‘och, erdag'i izlar va h.k.) va madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televideenie, internet va h.k.) jismlar orqali amalga oshiriladi. Bevosita muloqot shaxsiy aloqalar va muloqot aktining o`zida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi. Bunga jismoniy aloqalar, odamlarning o`zaro suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko`rib turgan holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. Bilvosita muloqot vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi.²

Aloqa jarayonining asosiy yettita komponenti bo`lib, ular:

- so`zlovchi-biror ma'lumot yoki axborotni yetkazish uchun muloqotga kirishuvchi shaxs
- tinglovchi-so`zlovchi tomonidan bayon etilgan xabarni qabul qiluvchi va tinglab muloqot o`rnatuvchi shaxs
- xabar- so`zlovchi tomonidan tinglovchiga yetkazilayotgan ma'lumot
- Muloqot vositasi (channel)- yetkazilayotgan xabarni tashkil etuvchi nutqning leksik birliklari, prosodik va knematic elementlar
- fikr-mulohaza (feedback)-so`zlovchi tomonidan yetkazilgan xabarga tinglovchining munosabati
- fikrni chalg'ituvchi holat (interference)-muloqot jarayoniga halaqit beruvchi har qanday holatning mavjudligi
- vaziyat (situation)-muloqot jarayonida suhbat olib borilayotgan vaqt, joy va holatning muhimligi³

Rasmiy muloqotga lingvistik nuqtai nazardan qaraydigan bo`lsak, ushbu muloqot turi grammatik va leksik-frazeologik jihatdan bir qancha qonun-qoidalarga bo`ysunadi. Bunga “Siz” va “Sizning” olmoshlari xushmuomalalikni aks ettirish maqsadida bosh harflar bilan yozilishini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, punktuatsiya qoidalariiga ham alohida e'tibor beriladi. Rasmiy muloqot jarayonida rasmiy uslubdan foydalanish, leksik birliklarning ushbu uslubga xosligi yaqqol ko`zga ko`rinib, bunda rasmiy uslub leksikasi atamalar, so`z birikmasi va qo`shma so`zlar, grafik qisqartmalar tashkil topgan. Bundan tashqari, rasmiy hujatlarni to`ldirishda maxsus shakl, andozalarining mavjudligi, arizalar yozish jarayonida belgilangan klischelardan foydalanish zarurligi rasmiy uslub talab qilgan qoidalardan biridir. Mazkur uslub leksikasi funksional va stilistik bo`yoqdorlikka egaligi, uning maxsus lug'at boyligi va frazeologiyaga egaligi rasmiy muloqot qoidalaring asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Kundalik nutqimizda ishlatiladigan so`zlarning rasmiy muloqotda o`ziga xos tarzda ishlatilishi, rasmiy muloqotning muayyan belgilangan lug'at


² <https://uz.drunkentengu.com/kommunikatsii-ponyatie-opredelenie-vidyi-klassifikatsii-i-osnovnye-printsyipyi-130e68>

³ <https://quizlet.com/97069174/7-elements-of-the-speech-communication-process-flash-cards/>

tarkibi mavjudigidan darak beradi, bunga misol sifatida yashamoq- istiqomat qilmoq, lavozimidan bo`shatilmox- ozod etilmoq, aytmoq-xabar bermoq shaklida ishlatilishini ko`rshimiz mumkin.

Shu o`rinda ta`kidlab o`tish kerakki, rasmiy muloqotda ishlatiladigan so`zlar aniq ma`nolarda qo`llanilib, hissiy bo`yoqdorlikdan xoli bo`ladi. Rasmiy muloqotda muayyan kasbga, sohaga oid so`zlardan foydalanilib, matn tarkibida turli nutq me`yorlari, nomenklatura belgilari, qisqartmalar ishlatilishi mumkin.

Rasmiy muloqot qo`llanish sohasiga ko`ra to`rtta asosiy funksional guruhlarga ajratilib o`rganiladi:



Yuqorida keltirilgan jadvalda rasmiy muloqot to`rtta asosiy soha doirasida ishlatilib, har bir soha o`ziga xos leksik va frazeologik birliklar, so`z birikmalari, hujjatlarni to`ldirishda ishlatiladigan maxsus qoliplar, clishelardan foydalaniadi. Hamda har bir hujjat o`z ishlatilish sohasi va ko`lamiga qarab bir-biridan farq qiladi. Ushbu hujjatlarning turlari har xil bo`lganidek, ularning shakllari ham turlichadir, ya`ni ayrimlari faqat yozma rasmiy muloqotda ishlatilsa, ayrimlari faqat og`zaki tarzda mavjud bo`ladi.

Quyida keltirilgan jadvalda rasmiy muloqotning asosiy janrlari yozma va og`zaki tarzda ishlatilishiga qarab ikkita guruhga ajratilgan:

Qo'llanish sohasi	Yozma tarzda	Og'zaki tarzda
Ma'muriy va ish yurituvchi	Ko'rsatma, buyruq, ishonchnoma, dalolatnama, bayonnama, guvohnoma, xulosa, tushuntirish xati	Ish suhbat, ko'rsatma, hisobot, uchrashuv, intervju, xulosa
Qonun chiqaruvchi	Qonun, nizom, farmon, farmoyish	Hisobot
Yurisdiksiya	Kassatsiya shikoyati, yolg'on ma'lumotlarni rad etish, da'vo arizasi, sud ajrimi	Sudda nutq, yolg'on ma'lumotlarni rad etish
Diplomatik soha	Memorandum, ishonchnomalar, konVENTSIYA, bitim-kelishuv	Muzokara, og'zaki eslatma

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, til kishilar orasidagi eng muhim aloqa vositasi hisoblanib, tilshunoslar tomonidan unga nisbatan bir butun sistema sifatida qaralib, ijtimoiy hodisa deb qabul qilingan. Til va nutqning bir-biridan gnoseologik (umumiylilik-xususiylik, abstraktlik-konkretlik), ontologik (psixik-fiziologik, paradigmatica-sintagmatika, ongtafakkur), pragmatik (sotsial-individual, kod-xabar) jihatlardan farq qilishi, ularning inson nutqida yaxlit holda kelishiga qaramasdan, har biri o`z leksik va lingvistik elementlariga, o`ziga xos prinsiplariga ega ekanligini ko`rsatib beradi. Ayniqsa rasmiy muloqotdagagi so`zlashuv jarayonida so`z yuritilayotgan obyekt yoki soha mavzusi yuzasidan fikr ifodalanganda, hujjat tayyorlanganda, aynan ushbu sohaga oid leksik birliklar, frazalar, andozalar, turg'un iboralar ishlatalishi, tilning ma'lum bir sistema asosida tuzilganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Nurmonov A.. Tanlangan asarlar. Jild 1. - T.:Akadem nashr, 2012.-B. 73.
2. Mahmudov N.. O'qituvchi nutqi madaniyati.-T.:A.Navoiy nashr, 2007.-B.42.
3. Mahmudov N. Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. -Toshkent: O'qituvchi,1995. – B. 47-58.
4. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqa. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –T.:1992. 80 b.
5. Safarova R.. Leksik-semantik munosabatlarning turlari.- T.:O'qituvchi nashr, 1996.-B. 3-9.
6. Bach K., Harnish R. Linguistic Communication and Speech Acts.–London.; The MIT.–171 b.
7. Sadock J.M.. Toward a Linguistic Theory of Speech Acts. –New York: Academic press, 1974. –179 b.

<https://fayllar.org/nutq-uslublari.html>

2.<https://uz.drunkentengu.com/kommunikatsii-ponyatie-opredelenie-vidyi-klassifikatsii-i-osnovnyie-printsipyi-130e68>

3.<https://quizlet.com/97069174/7-elements-of-the-speech-communication-process-flash-cards/>